

## XAN PODSHOLIGI

**Chimirov Zafarbek Yusufjon o`g`li**

*Jizzax davlat pedagogika univerteti talabasi tarix 1-kurs*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada qadimgi xitoy xududidagi eng qadimgi sulolalardan biri Xan sulolasi vavrini qisman yoritib beradigan maqola hisoblanadi. Xan imperyasi davrida xitoy xududida bo`lgan o`zgarishlar va xan imperyasi davrini yoritiladi.

**Kalit so`z:** Sin Shi Xuandi, chu podsholigi, Chen Shen, syan yuy, Lyu Ban, Xan xokimyati, Gaysiya, Lyu Ban Gao-Szu, Buyuk ipak yo`li, U-Di, Oltin asr CHjan Syan, Katta Xan, kichik Xan

### KIRISH

Xan podsholigi xitoy xududida vujudga kelgan va Xitoy xududini yagona davlatga birlashtirgan sulolalardan biri hisoblanadi. Bu podsholik Xitoy xududida Sin imperyasi davridan keyin taxtga kelgan hisoblanadi.

Yaniy Sin Shi Xuandi vafotidan keyin saltanatda norozichilik harakatlari kuchayadi. Shunday harakatlarning eng kuchlisi Chu podsholigida ham boshlangan edi.

#### Assosiy qism

Bu norozichilik harakatlarining assosiy maqsadi ulug` Chu podsholigini qaytadan tiklash edi. Qo`zg`olonchilar birin ketin Chu shaharlarini bosib oladilar. Sin amaldorlaridan qattiq o`ch ola boshlaydilar.

Chen shaxri bosib olingach jamo oqsoqollari qo`zg`olon rahbarlaridan birini yaniy Chen SHenni o`zlariga podsho qilib ko`taradilar. Jang larning birida Chen Shen halok bo`ladi. Eski zadogonlardan bo`lgan Syan Yuy Chu qo`zg`olonchilar qo`shining qo`mondoni bo`lishadi.

Syan Yuy o`zini 'Chu hikimi' deb elon qiladi. Bunday qo`zg`olonlar Sin imperyasida ham boshlangan edi. Bunday qo`zg`olonlarga qishloq oqsoqoli Lyu Ban boshchilik qilgan hisoblanadi millodan avvalgi 207- yilda Sanan shaxrini ishg`ol qilgan qo`zg`olonchilar millodan avvalgi 206- yilda qo`zg`olon rahbari Lyu Bani 'Xan hokimi' deb elon qilishadi.

Qattiq janglar natijasida ikki tomondan ham koplab odamlar qurbon bo`lgan. Sin SHuxandining o`g`li qo`zg`olonchilar qoliga asir tushib o`ldirilgan. Shu davr ichida Xan salatanatini egallash uchun Lyu Ban bilan Syan Yuy o`rtasida qonli janglar boshlanadi. Nixoyat millodan avvalgi 202-yil yanivarida Gaysiya yonidagi jangda Lyu Ban qo`shinlari Syan Yuy qo`shinlari ustidan g`alaba qozonadi. Shu bilan Xitoyda Sin podsholigi tugatilib Xan saltanati o`rnatiladi.

Xan podsholigining kuchayishi



Lyu Ban Xan taxtini o'tirgach o'zini Gao- Szu deb atashni buyurdi . U o'z boshqaruvining dastlabki yilida xalqqa ko'plab yengiliklar berdi. Keyinchalik esa u Sin imperyasi davridagi boshqaruvdan foydalaniladi. U itot etmagan podsholiklar bilan qattiq kurashlar olib borgan hisoblanadi. Shuni takidlash keraki XAN podsholigi o'z boshidan Katta xan sulolasi ( mil. avv.206 milodiy 25- yillar ) va kichik Xan sulolasi davrlarni boshdan kechirgan hisoblanadi. Xan podshosi Szin-di davrida yeti hokimlikning birlashgan 200 minglik qo'shinini saltanat poytaxti Sanyanga hujm boshlaydi. Ammo yetti hokim qo'zg'oloni poytaxt ostonalarida tor mol etiladi. Yetti hokimlar amaldorlari ishdan olinib mustaqil qo'shin tutushdan mahrum etiladi. Buyuk ipak yo'lining markaziy qismi o'rta osiyodan o'tgan edi. B u yo'l O'rta Osiyo xalqlarining jahon xalqlari bilan madaniy iqtisodiy aloqalar tarixida aloxida ahamiyat etgan hisoblanadi.

Xan podsholigining istilochilik yurushlari


Xan podsholigi tashkil topib o'zini tiklab olgach podsholar qo'shinlari mamlakatni istilo qilishga kirishganlar. Mil. avv. 200- yillarda Lyu Ban-Gao-Szu o'z qoshinlari bilan xunlar ustiga bostirib borganlar. Uning qo'shini Xunlardan mag'lubiyatga uchragan hisoblanadi Gou-Szu o'zi asrga tuishib asirlikdan qochib qutilgan . Xan saltanatining eng kuchaygan davri U- Di podsholik qilgan mil. avv. 140-87 -yillarga to'g'ri keladi. Bu davr Xitoy tarixida < Oltin asr nomi bilan mashhur > U- Di mahaliy aslzodalarning huquqlari biroz cheklanib saltanatda amaldorlar ustidan nazorat kuchaygan hisoblanadi. Xanlarga qarshi ittifoq topishi uchun U-Di mil.avv. 138 – yilda CHjan Syan boshchiligidagi o'z elchilarini O'rat Osiyo va Hindistonga yuborgan. CHjan Syan mil. avv. 138-125-yillarda Qang`, Yuechji, Kushon, Dovon, Baqtirya hukumdorlari huzurida bo'lgan Bu davlat xukumdorlarini xitoy bilan birga bo'lib Xunlarga qarshi urushga ko'ndira olmagan.ShU DAVRDAN BOSHLAB Xitoyning O'rta Osiyo bilan aloqasi kuchayib 'Buyuk ipak yo'liga assos solinadi'

U-Di ko'p sonli otliq qo'shinga tayanib mil.avv. 127-119- yillarda bo'lgan urushlarda xunlarni yengib dastlabki g'alabaga erishgan. U-Di davrida Xan qoshinlari janubiy-sharqiy Xitoydagi ko'p viloyatlarni bosib olgan hisoblanadi.

Mil.avv. 130-111- yillar orasida U-Di janubi g'arbdagi varvarlar ustiga ikki bor qo'shin yuborgan . Xan qo'shinlari Hindistonga yo'l topolmasa ham Yansizi daryosi yuqori oqimidagi joylarni podsholika qo'shib oladi.

Mil.avv. 109-yilda Xan qoshinlari koreya yarimoroliga ham bostirib kirib CHonson mamlakatini qo'shib olgan .Mil.avv. 104-101- yillarda U-Di qoshinlari Dovon davlati bilan urushlar olib borgan . Podsholik qoshinlari Ershi shaxrini qamal qiladi . Xitoyliklar Dovondan ' qon bilan terlaydigan osmon otlarini ' olib qaytishgan hisoblanadi. Mil.avv. II asr o'rtalaridan I asr boshlarigacha bo'lgan davrda Xan podsholigi qo'shinlari zafarli yurishlarni olib boradi va mamlakat hudini kengayishiga sabab bo'ladi.U-Di davrida





mamlakat SH arqiy Osiyodagi eng kuchli davlatga aylangan.U-Di davridan so`ng mamlakat zaiflashib ichki kurashlar boshlanadi turli xududlarda xalq qo`zg`olonlari ko`tarilib Xan podsholigi zaiflashadi.

Xullosa

Xulosa qilib aytadigan bo`lsak Xan podsholigi davrida mamlakat o`zining eng gullagan cho`qisiga erishadi. O`zigacha hechkim yenga olmagan Xunlar ustidan g`alaba qozonadi. Shu narsalarning barchasi xan sulolasi davrida mamlakat qay darajada rivojlanganidan dalolat beradi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO`YXATI:

- 1.Abdujabbor Karimov Qadimgi sharq tarixi Toshkent 2016
- 2.Mahkamov.M. Xalilov .N. Qadimgi sharq tarixi Toshkent 2019
- 3.A.S.SAGDULLAYEV QADIMGI DUNYO TARIXI 2004
- 4.ARXIV.UZ XITOYDAGI XAN IMPERYASI

